SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 22-sentabr | 215-9-124-Q/25 | Guliston tuman hokimligi

Guliston tumanida bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini davlat yer kadastrida bo‘sh turgan yer uchastkasi sifatida hisobga olinish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta’minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-172-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6- va 21[1]-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Davlat Kadastrlari palatasi Guliston tuman filialining 2025-yil 20-sentyabrdagi 276-sonli tuman hokimi nomiga qilgan murojaati qanoatlantirilsin.
2. Ilovada ko‘rsatilgan yerdan foydalanuvchilar bilan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlar bekor qilinganligi natijasida foydalanib kelingan jami 36,8 gektar yer maydonlari bo‘sh turgan yer uchastkasi sifatida hisobga olinsin.
3. Guliston tumani hokimining o‘rinbosari S.O‘tbosarov yerdan foydalanuvchilar bilan yer ijara shartnomalari bekor qilinganligi natijasida bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni hisobga olish maqsadida Davlat kadastrlari palatasi Guliston tuman bo‘limiga yuborsin.
4. Davlat kadastrlari palatasi Guliston tuman bo‘limi (X.Kenjayev) tuman hokimligi tasarrufidagi bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning hisobga olinsin va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar “E-ijara” axborot tizimiga yuborilsin.
5. Guliston tumani hokimining o‘rinbosari S.O‘tbosarov viloyat “Sirvilyerloyiha” bo‘limi bilan birgalikda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning o‘rnatilgan tartibda elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilishini ta’minlasin.
6. Tuman hududlarida bo‘sh turgan yer uchastkalari o‘zboshimchalik bilan egallab olinishiga, yer berish tartibini buzgan holda ajratilishiga, boshqa shaxslar tomonidan yerdan xo‘jasizlarcha foydalanilishiga yoki uning yaroqsiz holga tushirilishiga yo‘l qo‘yilmasin.
7. Tuman hokimligi Axborot xizmati (S.Erkinov) bo‘sh turgan yer uchastkalarini hisobga olish to‘g‘risidagi ushbu qaror rasmiy sahifalarda e’lon qilinsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.O‘tbosarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **O.Jurayev**

Guliston tumani hokimining
2025-yil 22-sentabrdagi
215-9-124-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Guliston tumani zaxirasida bo‘lgan davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi belgilangan yer maydonlari

RO‘YXATI

T/r	Yerdan foydalanuvchilar nomi	Kontur raqami	Umumiy yer maydoni (ga)	Shu jumladan:												
				Haydalma yerlar		Bog‘zorlar	Uzumzorlar	Tutzorlar	Bo‘z yerlar	O‘tloq va yaylovlar	Jami qishloq xo‘jaligi yerlari	Dalani himoya qiluvchi ihota daraxtzorlar	Ariqlar, kanal va zovurlar	Yo‘llar (mollarni haydab o‘tuvchi dala yo‘llari)	Qurilishlar, ko‘chalar, saroy va maydonlar	Boshqa yerlar
				sug‘oriladigan	shu jumladan holati yomon yerlar											
Uch Qahramon hududi																
1	Tuman hokimligi	374q	22,0								22,0					
		375q	8,0								8,0					
		69	4,7										0,4			4,3
1	**Hudud jami**	**3**	**34,7**								**30,0**		**0,4**			**4,3**
Bog‘shamol hududi																
1	Tuman hokimligi	309	2,1							2,1	2,1					
1	**Hudud jami**	**1**	**2,1**							**2,1**	**2,1**					
2	**Tuman bo‘yicha jami**	**4**	**36,8**							**2,1**	**32,1**		**0,4**			**4,3**